

Farg`ona davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya

kafedrasi dotsenti q/x.f.n (PhD)

Abdullayeva Maxsudaxon To'lanovna

abdullayevamaxsudaxon7@gmail.ru+998905839571

Farg`ona davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya

kafedrasi 4- kurs talabasi

Shukrullo Ergashev

Annotatsiya: Maqolada ta'lim muassasalari dasturlarida ekologiya to'g'risidagi fikr mulohazalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid qimmatli ma'lumotlar, uslubiy o'quv materiallar orqali o'quvchi va talabalarga ta'lim-tarbiya berishning uslublari haqida so'z yuritilgan hamda ekologik ta'lim muammolari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekologik pedagogika, atrof muhit muxofazasi, ekologik ta'lim va tarbiya, huquqiy bilimlar, globallashtirish sharoitida atrof muhit muxofazasi.

Аннотация: В статье читателю представлены взгляды на экологию в программах образовательных учреждений, ценная информация в области экологии и охраны окружающей среды, охраны природы, рационального использования природных ресурсов, а также методические учебные материалы и методы. Обсуждаются обучение студентов, обсуждаются проблемы экологического образования

Ключевые слова: Экологическая педагогика, охрана окружающей среды, экологическое образование и воспитание, правовые знания, охрана окружающей среды в условиях глобализации

Abstract: The article discusses the methods of educating pupils and students through methodological educational materials, valuable information on

ecology in educational programs of educational institutions, environmental protection, nature conservation, rational use of natural resources, and the problems of environmental education.

Keywords: *Ecological pedagogy, environmental protection, environmental education and upbringing, legal knowledge, environmental protection in the context of globalization*

Kirish. O‘quvchi yoshlarda ekologik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta’lim - tarbiya tashkil etadi. Bugungi ekologik holat ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini ya’nimaktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oily ta’lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki, muayyan aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ekologik ta’lim - tarbiya natijasida o‘quvchi yoshlarning ekologik madaniyatini bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatni tizimli va izchillikda olib borish dolzarb masalalardan biri sifatida nazarda tutish lozim. O‘zini - o‘zi anglash va o‘zligini ifodalashga bo‘lgan ehtiyoj o‘quvchilarni o‘z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o‘quvchilar jamoasida obro‘ - e'tibor qozonish, atrof muhit ta'siri va uni inson salomatligidagi roli borasida harakatga keltiruvchi vosita bo‘lib, o‘quvchilarda o‘zini - o‘zi hurmat qilish, o‘zligini anglash, o‘zini - o‘zi boshqarish, o‘zini - o‘zi tarbiyalash, tozalikka rioya qilish, gigiyenik talablarni amalda bajarish kabi ko‘z nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilardagi mavjud va ma'lum bir maqsadda shakllantirilgan ehtiyojlar boshlabg‘ich sinflardayoq ma'naviy ma'rifiy ishlar jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda yuqori natijalarga erishish, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ekologik ta’lim va tarbiya orqali kishilarda, jumladan, yoshlarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo‘lgan Yer sayyorasi haqidagi tasavvurlar, o‘z yashash muhiti to‘g‘risidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va insonlarni o‘zaro uzviy bog‘langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o‘lkasi va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo‘lishi, evolyutsion

rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan hususiyatlari, boyliklari, holati, kelajak istiqbollari, milliy, regional va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, Yer yuzasi atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning yechimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetensiyasi, ularni tanlagan kasblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi va rivojlantiriladi

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industrial jamiyatga o'z tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtda insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar yuzaga keldiki, ular ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy xarakterga ega bo'lgan turli xil ekologik muammolar yuzaga kelib, insoniyat sivilizasiyasi davomiyligiga tahdidi ortib bormoqda. Ayni vaqtda dunyo aholisining aksariyati ekotizimni buzilishi va atrof-muhitni ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat uchun katta xavf ekanligini ta'kidlamodalar.

“Ekologik tarbiya” atamasi pedagogikada nisbatan yangi tushuncha, biroq inson va atrof-muhit, tabiatning o'zaro ta'siri muammosi pedagogik yondashuv tarixi davomida turli nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Ekologik ta'limning hayotga tatbiq etilishi pedagogik tarixiy ta'limot yondashuvlarida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini inson shaxsining shakllanishi, yaxlitligi, inson va tabiat, jamiyat va koinot birligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. YA.A.Komenskiy nuqtai nazaricha insonda tabiiy, mustaqil va o'z-o'zini harakatga keltiruvchi kuch mavjud degan qarash ilgari surilgan holda, ta'limning muntazamligi asosida o'quvchi dunyoni anglash va zaruriy bilimlarni egallashda o'zini o'zi faoliyatga undovchi tamoyil nazariyasini shakllantiradi, degan fikrlarni ilgari surgan. Ekologik ta'lim va tarbiya deganda o'quvchilarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish sohasida tabiatdan foydalanishning ilmiy asoslari haqidagi bilimlarini, ularga muvofiq harakat qilish zarurligiga e'tiqodlarini, amaliy ko'nikmalarini va

sohada faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik jarayon tushunilishi kerak. Ekologik ta'lim va tarbiya dunyoning moddiy birligi va inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning turli tomonlarini, tafakkurning ekologik uslubini, tevarak-atrofga huquqiy, siyosiy, axloqiy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi shaxs ongini shakllantirishni va unda insonning o'rnini o'z ichiga oladi.

Tarbiya muammolarini faqatgina ta'lim muassasasi doirasida ko'rib chiqish bir tomonlama qarash bo'lib, bu borada to'g'ri qaror qabul qilishda etarlicha asosga ega bo'lmaydi. Shuning uchun bola shaxsini shakllantirishda atrof-muhit - tabiat, oila, ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, davlat siyosati va iqtisodiyoti ham o'z o'rniga ega bo'lib, ma'lum funktsiya va vazifalarni bajargan holda ta'sir doirasi darajasida ekologik ta'lim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan maktab va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishda tizimlilik muvozanatini ta'minlashda katta xizmat qiladi.

Bunda:- maktab ta'limi o'z faoliyatida atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan o'qitish tizimini amalga oshiradi;

- o'quvchilarda atrof-muhitga qiziqish va jonli tabiatga mehr ko'rsatish hamda uning bir bo'lagi ekanligini singdirish borasidagi targ'ibot va tashviqotni samaradorligini oshirish borasida zamonaviy dasturlar yaratadi;

- maktabda o'quvchilarga nafaqat atrof-muhitni o'rganish balki uning faol iste'molchisi ekanligini singdirish orqali, kelajakda yashab qolishning birdan-bir manbai ekanligini uqtiradi;

-maktab ta'limida jamiyat muvozanati hamda sog'lom fikr yuritish tabiat va ekotizm mahsuli ekanligini nazariy manbalar va amaliy omillar orqali tushuntiradi;

-o'quvchi yoshlarda atrof-muhit va ekotizm yuzasidan ilg'or fikrlarni, zamonaviy qarash va nazariyalarni singdirgan holda ijtimoiy faolligini oshirib konservativ qarashlardan holi etadi.

Ushbu qarashlarimiz "ekologik pedagogika" muammolarini faol rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, yoshlarda ekologik ta'lim va tarbiyaning

yangicha qarashlarini shakllanishiga nazariy va amaliy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“Ekologik pedagogika” ta’limi tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilariga zamonaviy ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan bir qator asosiy yondashuvlarni aniqlash imkonini yaratib, fan dasturiga, xususan, atrof-muhitning mohiyatini va uning pedagogik ahamiyatini, ta’lim tizimidagi o‘rnini asoslash, atrof-muhitning har xil turlarini o‘rganish, atrof-muhit bilan pedagogik ishlarni tashkil etishning uslubiy masalalarini ishlab chiqish, “ko‘rsatkichlar” va “o‘lchov birliklari” kabi masalalar joy olishini taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda, “atrof-muhit pedagogikasi” konsepsiyasining tarafdorlari insonning shakllanishiga ta’sir qiluvchi tabiiy omillarni, qonuniyatlarni, tashkil etish shakllarini va usullarini, insonni ijtimoiy shakllanishining butun jarayonini doimiy integral sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaganlar.

“Ekologik pedagogika” nazariyasini ishlab chiqish natijasida atrof-muhit va ekologik ta’limni tashkil etishda yangi istiqbollarni ko‘rib chiqishga imkon berdi. Ekologik ta’lim va ma’rifat sohasida ko‘p ishlar boshlangan, eng muhimi, amalga oshirilayotgan bo‘lsa, ekologik madaniyatni shakllantirishga nisbatan hali juda kam ish qilingan. Balki bu ekologik madaniyat nima ekanligini aniq belgilash qiyinligi bilan bog‘liq.

Eng umumiy shaklda aytishimiz mumkinki, ekologik madaniyat
- bu bilimlar, ko‘nikmalar, qadriyatlar va tabiatga nisbatan munosabatlar uchun javobgarlik hissidir.

Insonning ekologik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar bo‘lishi kerak:

ekologik bilim, ekologik fikrlash, ekologik xulq-atvor va tabiatga muhabbat hissi.

Ekologik madaniyatning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini bilish;
- ularning mavjudligi va tarixi o‘rtasidagi munosabatni, tabiatning insoniyat shakllanishi va evolyutsiyasining asosiy printsiplari ekanligini tushunish;

- tabiiy muhit bilan inson munosabatlarining ijtimoiy shartlilikini anglash;
- iste'molchilarning tabiatga faqat moddiy ne'matlar manbai sifatida munosabati yo'qligi;
- inson faoliyatining yer biosferasiga ta'siri oqibatlarini oldindan ko'ra bilish;
- o'z faoliyatini tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish talablariga bo'ysundirish;
- qulay tabiiy sharoitlarni saqlab qolish va bu yo'nalishda aniq ishlarni bajarish .

Ekologik masala yuzasidan 2019-yil 12-aprel kuni Xalqaro ekologik bilimlar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Ekoharakat deputatlik guruhi hamda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamkorligida "Mamlakatimizda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish" masalasi atroflicha muhokama qilinib, dunyoda kun sayin keskinlashib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ekologik bilim yuqori bo'lmog'i lozimligi ta'kidlangan. Unda har yili dunyoning ko'plab mamlakatlarida ekologik bilimlar kuni keng ommaviy ravishda nishonlanishi e'tirof etilgan holda 1992-yil Rio-de-Janeyro shahrida o'z tkazilgan BMT konferensiyasida atrof-muhit muammolari muhokamasi chog'ida insoniyatning hayoti va barqarorligi uchun butun dunyo aholisi o'rtasida ekologik bilimni targ'ib etish atroflicha bayon etilganligi xususida ilmiy-amaliy fikr-mulohazalar yuzasidagi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Erkin Aydarov, Gavhar Abdullaeva. The Impact of modern Innovative Educational Technologies for The Environmental Education of Students with Hearing Impairments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. (Great Britain) Volume 24
3. Aydarov E.B., Aydarova A.B. Инновационные методы обучения оптимальному управлению водными ресурсами. "Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari" Respublika

miqiyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari toplami 2020 yil 22-23 oktabr. - B. 133-135.

4. Aydarov E.B, Aydarova A.B. Процессы управления водными ресурсами распределённых ирригационных систем // Fundamental fan va amaliyot integratsiyasi: Muammolari va istiqbollari. Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari // 2018 yil 24-25 may.-T.: 2018. - B. 151-153.

5. Aydarov E.B. Ekologiya va tabiatdan foydalanish (o'quv-qollanma.). Guvohnoma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2020 yil 30 iyundagi 359-sinli buyrug'i. Ro'yxatga olish raqami 359-202.-Qarshi, - 2021. 04-2170.

6. Одум Ю. Экология. В 2-х т. М.: Мир, 1986.

7. Ibragimov Berdimurat Ekologik ta'lim muammolari.

8. Ortiqova D.B. Ekologik madaniyat, ta'lim-tarbiya berishning nazariy uslubiy asoslari

9. Abdullayeva Maxsuda To'lanovna, Maqsudova Gulnora Maxammadjonovna, Ekologik ta'lim va tarbiyada xorijiy tajriba

10. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya-Toshkent: O' qituvchi, 1992.-62 b.

11. Muhammadiyeva Gulnoza Zarif qizi, ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy va ekologik madaniyatni shakillantirish.

12. Abdullayeva, M. T. L. (2022). Ko'kalamzorlashtirish tirik organizmlar kafolatidir. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 710-715.

13. Abdullayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022). No 'xatni fotosintez jadalligi va maxsuldorligiga ekologik omillar ta'siri. *ijodkor o'qituvchi*, 2(22), 341-346.

14. Abdullayeva, M. T. (2023). Manzarali o 'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati. *World of Science*, 6(5), 16-20.

15. To'lanovna, A. M., & Djurayevna, A. G. (2022). Ekologik omillarning inson salomatligiga ta'siri.

16. To'lanovna, M. A., & Erkinovna, U. T. (2022). Farg'ona shahar infrastrukturasi manzarali o 'simliklarning tutgan o'rni va ro'li. *innovation in the modern education system*, 2(18), 360-365